

“HAYVONOT OLAMIGA MANSUB MAHSULOTLAR” LEKSIK-SEMANTIK GURUHI

Uralova Nigora Abduvaliyevna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili amaliy kursi
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14061636>

Har qaysi til olamni o'ziga xos usulda ifodalagani sababli tillarning har biri o'ziga xos tarzda “olamning lisoniy manzarasi”ni hosil qiladi. Tillarning “olamning lisoniy manzarasi”ni aks ettirishida xalqning madaniyati, milliylik, qadriyatlari, urf-odat va an'analari muhim rol o'ynaydi. Bu esa, o'rganilayotgan tilning – Olamning lisoniy manzarasini beruvchi madaniy konseptlarini tushunib yetish bilan bog'liqdir.[1] S.A.Arutonovning ta'kidlashicha, taom – madaniyatning shunday moddiy elementiki, unda boshqalariga qaraganda ko'proq milliy qarashlar saqlanib, xalqning o'z milliy xususiyatlari spesifikasi haqidagi farazlari shakllanadi va oson tushuniladi.[2]

Iboralarni lingvomadaniy konseptual asoslarda o'rganish narsa va hodisalarning muhim belgilarini ajratish, borliqning lisoniy manzarasini yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi. Iboralarni o'rganishda turli til vakillarining borliq, undagi narsa va hodisalarga munosabati, milliy va madaniy dunyoqarashi kabi xususiyatlar markaziy o'rinda turadi. Iboralarni etnik, ijtimoiy, pragmatik jihatdan o'rganish esa uning ayni xususiyatlarini yanada kengroq va teranroq ochib berish imkonini beradi.[3] Xuddi shunday o'zbek tilida gastronomik frazeologik birliklar tarkibida «*Hayvonot olamiga mansub mahsulotlar*» leksik-semantik guruhi «*Sut mahsulotlari*»; «*Go'sht, go'shtdan tayyorlanadigan mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar*»; «*Baliq mahsulotlari*»; «*Qush va parrandachilik sanoati mahsulotlari*» kabi mikroguruhlariga bo'linib ketadi.

«Sut mahsulotlari» leksik-semantik guruhi. O'zbek gastronomik frazeologizmlarda “sut mahsulotlari” mikroguruhiga “*sut, qatiq, qaymoq, ayron, pishloq*” leksemalari faol komponentlardan biri hisoblanadi.

Sut gastronomik kodi. N.S.Marushkina o'z maqolasida sutga “xudolar taomi, hayot eliksiri, qayta tirilish, abadiyat, mehribonlik, g'amxo'rlik, achinish, mo'l-ko'lchilik va hosildorlik ramzi” deya ta'rif bergan. O'zbek tilida sut frazeologik birikmalarda komponent sifatida quyidagi ma'nolarda kelishi mumkin:

Halollik, poklik ramzi sifatida: *ona sutidek pok* (halol) – hech qanday nopoklik, qalbakilik aralashmagan kishining o'z peshona teri evaziga kelgan. *Ona sutiday halol* {yoki *pok*} – hech qanday nopoklik, qalbakilik aralashmagan, kishining o'z peshona teri evaziga kelgan. *Sutdan oq, qordan toza* - pokdomon, pokdil, mutlaq begunoh (*kesatliq bilan*). *To'laganova qo'y og'zidan cho'p olmagan farishta. Keling-chi? Keling?! Balki u ham sutdek oppoq, musichadek beozordir!* (O'.Xoshimov. **Tushda kechgan umrlar. Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat-2002. 240 b**). *Men halol narx qo'ydim, to'g'rimi yigitlar? - Ona sutidek halol, - yana “paxta” qo'yishdi yigitlar* (Xolidiy Husayniy. **Shamol ortidan yugurib...Toshkent: Yangi asr avlodi- 2016.**).

Sutdek oq - pokdomon, pokdil, mutlaq begunoh. *Sutdan oq, suvdan tiniq* - Beg'ubor, pok, begunoh odam haqida. masalan, *Singlim go'zal bir sanam yetaklab kelayotgan edi, uning ta'rifiga til ojiz! Ayniqsa, oyning sutday oppoq nurida uning chehrasi boshqacha ko'rinardi* (N.Ismoilov. **O'linga mahkum qilinganlar. Toshkent:Yangi asr avlodi- 2007. 256 b**).

Buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaslik - kim birovning haqiga zarracha xiyonat qilmaslik. Ha, shunaqangi dog'uli edi u, yiqiladigan joyiga oldindan ko'rpa to'shab qo'yardi, ishigayam, so'zigayam hamisha birovlarini qalqon qilardi, o'zi qo'y og'zidan cho'p olmagan, buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan faqir va hattoki jabrdiyda misoli panada qolib ketaverardi... (Abduqayum Yo'ldoshev. Puankare.ZIYOUZ.COM) Buzoqning haqi buzoqqa degandek, qatorasiga ikki yil quruqdan quruqqa ho'kiz yetaklab buzoq bermagan sigirni pushti kuygan deyishadi. (Bahodir Qobul. Oybuloq.ZIYOUZ.COM.)

Tajribasizlik timsolida: *“Ona suti og'zidan ketmagan” frazeologizmi hali yosh, turmushning achchiq-chuchugini, tajribasini ko'rmagan go'dak mazmunida mavjud. Masalan: **Og'zidan suti ketmagan**, yaxshi yomonning farqiga bormagan go'dakning qo'li bilan qon to'kishingizga yo'l qo'ymayman! (Isoqjon Nishonov Afg'on shamoli. 3-kitob, Namangan-2011.224 b.). Biz ro'y bergan yoki ro'y berayotgan jinoyatlarga qarshi kurashamiz. Lekin mana bunaqa **ona suti og'zidan ketmagan** bolalarni bu kimsasiz ovloq cho'llarga, ayniga kimsalar, ashaddiy jinoyatchilar orasiga kimlar, qanday qilib jo'natayotganlarini bizlar bilmaymiz (Chingiz Aytmatov. Qulayotgan tog'lar. Toshkent: O'zbekiston-2011. 536 b.). – Afv etasizlar, urushga manavinaqa **ona suti o'zidan ketmagan** go'daklarni jo'natishadi (Erkin Malik. Shaytonvachchanning nayranglari. Toshkent: Adabiyot uchqunlari-2013. 368 b).*

Berilgan gaplarda ishtirok etgan iboralarni yuqoridagi birlashtiruvchi semalari asosida o'zaro sinonimik munosabatdagi birliklar sifatida ham ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu iboralarga ma'lum ma'noda qarama-qarshi bo'lgan *ona suti og'zidan ketmagan* frazeologizmini keltirib o'tish mumkin, bu yerda ular o'rtasidagi zidlik “boshlanish”, “yakunlanish” semalari sanaladi. *Shuncha yil biz qilmagan ishni og'zidan **ona suti ketmagan** nevaramiz tengi bir qiz kelib qilmoqchi* (S.Abduqahhor). Ko'rinadiki, *og'zidan ona suti ketmagan* iborasida “vaqt” semasiga aloqador bo'lgan “yosh” semasi mavjud. O'zbek tilining o'ziga xos ifoda imkoniyatlarini turli semantik umumiyliklar ostida birlashgan iboralar orqali ham aniqlash katta ahamiyatga ega. Bunda iboralarni muayyan umumiy va xususiy semalar yordamida tahlil qilish maqsadga muvofiq.[4]

Sh.Rahmatullayev “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”da ayrim yosh anglatuvchi frazeologik iboralarni keltirib o'tgan bo'lishiga qaramay, bunday belgiga ega bo'lgan iboralar ancha kam uchraydi. Yosh belgisi bilan alohida farqlanuvchi frazeologizmlar qatoriga *ona suti og'zidan ketmagan, balog'atga yetgan, suyagi qotmagan, bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda, esini tanigan, sharti ketib, parti qolgan, o'n gulidan bir guli ochilmagan* kabi iboralar mansub. Bunday frazeologizmlar uchun xos bo'lgan umumiy ma'no belgisi “yosh” semasi sanaladi. O'z tarkibida bunday frazeologizmlarni “yoshlik” hamda “keksalik” belgisi bilan zidlangan frazeologizmlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, ularning har qaysisi ma'lum ichki belgilari bilan farqlanadi. Dastlabki bo'linishda ular quyidagicha guruhlanadi: - “go'daklik” semali frazeologizmlar; - “navqironlik” semali frazeologizmlar; - “keksalik” semali frazeologizmlar. Birinchi kichik guruhga *suyagi qotmagan, ona suti og'zidan ketmagan* frazeologik birliklarini kiritish mumkin. Ularda mavjud yosh belgisi bilan birga, “go'daklik” semasi kuzatiladi. Buni qarang-a, menga hali ona suti og'zidan ketmagan bir bola aql o'rgatsa-ya! (S.A.).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ba'zan bir xalqdagi qiyos ikkinchisidagiga umuman o'xshamaydi, hattoki zid bo'lishi ham mumkin, ijobiy va salbiy baholash holatlari ham kuzatiladi. Dunyoni til vositalarida ko'rish inson ongida olamni mantiqiy aks ettirish bilan bog'liq bo'ladi.

References:

1. Марушкина Н.С. “Гастрономические” фразеологические единицы как средство формирования концепта еда. Преподаватель XXI века, 2012.
2. Арутонов С.А. Основные пищевые модели и их локальные варианты у народов России // Традиционная пища как выражение этнического самосознания. –Москва: Наука, 2001.
3. Yarasheva N. Iboralarning lingvomadaniy tadqiqi. Til va adabiyot ta’limi jurnali. 11-son,2018.
4. Ganiyeva Sh.A O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantic va valent xususiyatlari: Magistrlik dissert. -Farg‘ona, 2011.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1978.